ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Saipova Madina Saidaxbor qizi

Toshkent xalqaro boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Arxitektura va raqamli texnologiyalar” kafedrasi dotsenti, arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

GEOMETRIK NAQSHLARNING RAMZLARDA IFODALANISHI

Annotatsiya : Ushbu ishda geometrik naqshlarning arxitekturadagi ramziy ifodasi va ularning semantik ahamiyati yoritilgan. Geometrik shakllar — doira, kvadrat, ko‘pburchak va yulduzsimon kompozitsiyalar — me’moriy bezaklarda ilohiy tartib, muvozanat va abadiylik g‘oyalarini ifodalaydi. Ayniqsa, islom arxitekturasida geometrik naqshlar ramz sifatida keng qo‘llanilib, binolarga nafaqat estetik, balki ma’naviy mazmun ham bag‘ishlaydi. Tadqiqot geometrik naqshlarni arxitekturani badiiy va falsafiy makon sifatida anglashda muhim vosita ekanini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar*:* Samarqand, minora, ramz, timsol, koshin, minorasimon inshootlar, mayoq, guldasta, burj, qafasa, mezana, qubba, sharafa, fonus, koinot, astronomik ramz, galaktika, yulduz, xarakat,ulug‘lik, spiral.

Резюме: Данная работа проливает свет на символическое выражение геометрических узоров в архитектуре и их семантическое значение. Геометрические фигуры — круги, квадраты, многоуголники и звездообразные композитсии — представляют идеи божественного порядка, равновесия и вечности в архитектурном декоре. В частности, геометрические узоры широко исползуются в качестве символов в исламской архитектуре, придавая зданиям не толко эстетический, но и духовный смысл. Исследование показывает, что геометрические узоры являются важным инструментом для понимания архитектуры как художественного и философского пространства.

Ключевые слова: Самарканд, башня, символ, эмблема, плитка, башеннообразные сооружения, маяк, букет, созвездие, клетка, мезана, купол, чест, фонар, вселенная, астрономический символ, галактика, звезда, движение, величие, спирал.

Annotation: This work sheds light on the symbolic expression of geometric patternsin architecture and their semantic significance. Geometric shapes — circles, squares, polygons, and star-shaped compositions — represent the ideas of divine order, balance, and eternity in architectural decoration. In particular, geometric patterns are widely used as symbols in Islamic architecture, giving buildings not only aesthetic but also spiritual meaning. The study shows that geometric patterns are an important tool in understanding architecture as an artistic and philosophical space.

Key words: Samarkand, tower, symbol, emblem, tile, tower-like structures, lighthouse, bouquet, constellation, cage, mezana, dome, honor, lantern, universe, astronomical symbol, galaxy, star, movement, greatness, spiral.

Markaziy Osiyo san’ati qadimiyligi, boy madaniyati bilan dunyoga mashhurdir. Uning zaminida qad ko‘tarib turgan va tuproq osti qatlamlari orasida topilayotgan tarixiy qazilma yodgorliklari o‘ziga xos ulkan bir muzeyni tashkil qiladi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san’ati o‘tmish avlodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, teran mazmunli, barkamol va

tarixning yuqori badiiy qiymatli madaniyat yodgorligi namunasi sifatida xalqimizning, jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy man’aviy merosni tashkil etadi.

Sirli timsollar va ramzlar tili – turli tasavvurlarga asoslangan shartli belgilarda mujassam, ming yilliklar davomida ajdodlarimizning donishmandligi jamlangan, qimmatli ma’naviyatimizning ilmu-hikmatli hazinalaridir. Qudratli saltanatlarni tarix qa’riga g‘arq qilgan vaqt inson tafakkuri oldida ojizlik qilgan. Qadimiy ramzlar hali-hamon bizni har tomondan o‘rab turibdi, biroq biz ba’zan ularni payqamaymiz ham. Har bir ramz o‘zida qandaydir kodlangan axborotni jamlagan, ammo ularni anglash ancha mushkul, xatto maxsus kalitsiz buni ochishning imkoni ham yo‘q.

Ramzlar – rang-barang shartli belgilar juda kichik hajmda katta axborotni jamlaydi, ustiga ustak birgina ramz ko‘plab ma’nolarni anglata oladi. Ba’zan ular tabiiy yoki san’at ob’ektining yaxshi ma’lum bo‘lgan sifatlariga asoslangani bois aniq va ravshan, biroq ko‘p hollarda biz uchun tushunarsiz allegoriya, personallashtirish va qaysidir qadimiy tilning fonetik assotsiatsiyalarga qurilgani sababli ularning mazmuni mutlaqo yashirin.

Ramzlarning katta guruhini koinot ob’ektlari va atmosfera hodisalari (yulduzlar, quyosh, kamalak, chaqmoq va boshq.), yerdagi tabiiy ramzlar (jonivorlar, qushlar, baliqlar, hasharotlar), insonning o‘zi bilan (yurak, qo‘llar, ko‘zlar va boshq.) hamda inson tomonidan yaratilgan sun’iy predmetlar (me’morchilik obidalari, qurol, marosim va maishiy buyumlar) bilan bog‘liq ramzlar, fantastik mohiyatga ega ramzlar (ajdaho, grifon, samandar, xumo qushi), shuningdek, allegorik shakl va abstraksiyalar (xoch, nimb, ranglar, sonlar va sh.k.) tashkil qiladi.

Bitta ramz birdan ortiq turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini inobatga olib, rang-barang manbalarga murojaat etgan holda qadimiy ramzlar olamiga chuqurroq kirib borishga, u yoki bu predmet, hodisa, mavjudot, mavhum jismlar ramzlari, mifologiya va folklorshunoslikda, din va ikonografiyada, astrologiya va alkimyoda, magiya va mantikada, geraldika va emblematikada qanday ko‘rinishga ega ekani, ular adabiyot va tasviriy san’atda, tarix, siyosat, harbiy san’at va inson faoliyatining boshqa turlarida qay taxlit aks etganini ko‘rishga harakat qilamiz.

Ushbu ramzlar alifbosini yaratilishi o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar, sanatshunoslar, rassomlar, ustalar, olimlar, ilmiy tadqiqotchilar, hunar o‘rganuvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va shu sanatga qiziquvchilar uchun yillar hatto asrlar davomida kutayotgan manba bo‘ladi.

O‘zbek milliy ramzlar alifbosi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan milliy-manaviy va madaniy-marifiy qadriyatlarni tiklash, umumjahon tamadduniga salmoqli hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning merosini o‘rganish va e’zozlash bilan bog‘liq keng qamrovli ishlarga qo‘shilayotgan kamtarona hissa bo‘ladi, degan umiddamiz. Xususan, u Oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari hamda talabalari, Markaziy Osiyo tarixi, ilmu-fan va madaniyatini o‘rganishga ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot muassasalari va ularning mutaxassislari, qolaversa, yurtimiz o‘tmishi bilan qiziqqan har bir o‘quvchi uchun qimmatli ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilishiga shubha yo‘q.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

ZIGZAK, SINIQ ChIZIQ – ritm, davriy takrorlanish, go‘zallik, tartibsizlik, erkinlik, g‘alyonkorli, hayolparastlik, jahldorlik va hayot ramzi. Inson hayotini spiralsimon harakati, hayotda insonning ko‘tarilishi va tushishi. Hayotni notekisligi. Zigzag shaklini yaxshi ko‘ruvchilar quyidagi psixologik hususiyatlarga ega bo‘ladilar.



Ijobiylari – yangilik, ijodga intilish, bilishga chanqoqlik, g‘alyonchi, hayolparast, optimist, kelajakka intilgan, ruhi tetik, eksperissiv, tashabusskor, aqlli.



Бадия. О.Матчанов. Хива. 2000 йил.


Salbiylari – tartibsizlik, ko‘rimsizlik, o‘zgaruvchanlik, individualizm, ishonchsiz, qonunlarni buzuvchi, realistik qarashning yo‘qligi, subutsiz, impulsiv, o‘zini namoyishkorona ko‘rsatadigan, zahar, kesatib gapiradigan.

ILON IZI – Hayotni notekisligi va baland pasligi. Hayot quvonch va tashvishi tun bilan kunni almashib turilishi, ezgulik va yovuzlik, xarakat, hayotni, qir-adrlarni, naqsh, bezak, suvni va boshqalarni ramzi. Xalq amaliy san’atining ko‘pgina turlarida kashtachilik, zardo‘zlik naqqoshlik va boshqa turlarida uchraydigan to‘lqinsimon naqsh turi.



PASTGA YO‘NALUVCHI OY – yer kuchi, (energiya), xayotni o‘tkinchiligi, o‘tish ko‘prigi, bir davrdan ikkinchi davrga o‘tishi, mehrobni bir ko‘rinishi, hayot qiyinchiliklardan o‘tish, insonni hayot ko‘rish ramzi. Bir dunyodan ikkinchi dunyoga o‘tish ramzi.





Naqshlar. Me’moriy yodgorliklar naqshlaridagi pastga

yo‘naluvchi yoy shaklini qo‘llanishi.

Oddiy naqshlarda pastga va yuqoriga yo‘naluvchi yoy shaklini qo‘llanishi.


CHARXPALAK – abadiy harakat timsoli, hayot charxpalagi, vaqt g‘ildiragi, olam abadiy harakatdan iborat demakdir. Dunyoda jamiki borliq harakatdan iborat ekanligiga ishora qiladi. Harakat bo‘lganda ham ezgulik va omad, baxt-iqbol sari intilishdir.

Yana charxpalakning "chorunsur" va boshqa atamalari ham mavjud. Chorunsur esa olam, tuproq, havo, suv va olov singari to‘rt unsur qorishmasidan tashkil topgan degan ma’noni ham anglatadi. Bu charxpalaksimon shakl Sharqda qariyb 1000 yildan buyon xilma-xil ma’noga ega bo‘lib kelgan.

Olmon matematigi German Veyl charxpalak haqida shunday degan edi: “Charxpalak (Svastika) insoniyatning eng qadimiy ramzlardan biri sifatida ma’lum bo‘lgan”.

Charxpalaklarning dunyoda turli-tuman turlari mavjud. Charxpalak shaklini mantiqan tahlil qilib ko‘rsak quyidagi hikmatlar bizga ayon bo‘ladi.

“AS” chiziq - tiriklik ramzi. “DV” chiziq - inson hayotining qisqaligi, ya’ni o‘lim ramzi. A1,



V2, S3 va D4 – chiziqchalar charxpalak harakatini, ya’ni dinamik ko‘rinishga hamda charxpalak soat ko‘rsatgichini chapdan o‘ngga yoki o‘ngdan chapga harakatini ko‘rsatib turish uchun xizmat qiladigan chiziqlardir. Charxpalakning soat ko‘rsatgichini chapdan o‘ngga harakati hayot va o‘lim doimo takrorlanishi, olam esa abadiy ekanligiga ishora qiladi. Charxpalak shaklida hayot bor joyda o‘lim muqarardir, Olam esa abadiydir deyilmoqchi.

Muqqadas kitobimiz bo‘lgan “Qur’oni Karimda” Mulk surasining 2–oyatida shunday deyiladi. “U o‘lim va hayotni sizlarning qaysilaringiz amalda yaxshiroq ekaningizni sinash uchun yaratgandir. U barchadan g‘olibdur va gunohlarni kechuvchidir”. Yaratguvchi so‘zi kvadrat va charxpalakning markazida joylashtirilgan, bu bilan naqqosh butun olamni harakatga keltiruvchi, ko‘rguvchi va bilguvchi yakkayu-yagona zotdir demoqchi.

Charxpalak shaklining ko‘rinishi na uning mantiqiy yechimi S_1, S_2 S_z, S_4- charxpalak shaklini xarakat yo‘nalishini ko‘rsatuvchi chiziqlar.

Me’morchilik madaniyati tarixi bilimdoni professor Dodo Nozilov charxpalak haqida shunday yozgan: "Charxpalak shaklidagi naqsh O‘rta Osiyoda juda qadim zamonlardan buyon mavjud. Oltintepadagi bronza davriga oid charxpalak shaklidagi tamg‘alar, X-XI asrlarga oid Afrosiyob devoriy pannolari fikrimiz dalilidir».

Charxpalak shaklidagi naqshlar quyosh ramzi, o‘lish va tirilish hamda abadiylik, o‘lim va hayot ramzi.

Chechen – ingushlarda esa mehmon ketishidan oldin mezbon eshigiga do‘stlik ramzi sifatida charxpalak naqshi tamg‘asini o‘yib ketar ekan.

Mo‘g‘ullarda murakkablashtirilgan charxpalak tasviri “O‘n ming yillik baxt” ma’nosini anglatgan. O‘tov peshtoqidagi naqsh “Hech qachon bu uyning chirog‘i o‘chmasin” degan ma’noni bildirgan”.

Umar Hayyom ta’biri bilan aytganda, “Insonlarni hayoti bamisoli karvonsaroyga o‘xshaydi, uni ikki eshigi bo‘lib, uning biridan kirib tursalar, ikkinchisidan chiqib turadilar” deydi. U insonlarni foniy dunyoga, ya’ni vaqtincha sinov uchun dunyoga kelishligini uqtiradi.



“Kamoliddin Behzod” yog‘och namoyon 50x30 sm. 2011 yil, lok, tempera. Xodjimetov B

Geometrik naqshlar arxitekturada faqatgina bezak vazifasini bajarib qolmasdan, balki chuqur **ramziy va semantik ma’noga ega** bo‘lgan muhim ifodaviy vosita hisoblanadi. Ushbu naqshlar orqali me’morlar tabiatdagi uyg‘unlik, tartib, muvozanat va abadiylik g‘oyalarini ifoda etganlar. Ayniqsa, islom arxitekturasida geometrik naqshlar ilohiy mukammallik, cheksizlik va koinot tartibining ramzi sifatida keng qo‘llanilgan.

Arxitektura inshootlarida takrorlanuvchi geometrik shakllar — doira, kvadrat, yulduzsimon kompozitsiyalar va murakkab ornamentlar inson tafakkurini oliy ma’nolarga yo‘naltiradi. Ular orqali muayyan davrning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va estetik qarashlari namoyon bo‘ladi. Demak, geometrik naqshlarning ramziy ifodasi arxitekturani faqat qurilish inshooti emas, balki **ma’no va g‘oyalarni o‘zida jamlagan badiiy va falsafiy makon** sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Zohidov P. Sh. Me’mor san’ati. G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 1978 yil. 25-b.

2.Saipova M.S. Ramzshunoslik. Darslik. –T.:”Fan va texnologiyalar nashryot-matbaa uyi”2021. 115-116 -betlar

3.https://shosh.uz/ozbekiston-memorchiligidagi-minoralar-va-minorasimon-qurilmalarning-qiyosiy-tahlili/

4.https://shosh.uz/ozbekiston-memorchiligidagi-minoralar-va-minorasimon-qurilmalarning-qiyosiy-tahlili/

5. Nozilov D.A. O‘rta Osiyo me’morchiligida odatlar , qoydalar va ramziy ifodalar. Monografiya.- T.: “San’at” jurnali, nashiryoti. 2011. - 57-bet.

6. Masson V.M. Altын –depe. –L.: Nauka, 1981, 127-b.

7. Saipova M.S. Astronomik bezaklar semantikasi. Monografiya. –T.:”Fan va texnologiyalar nashryot-matbaa uyi” 2022. 198-199 -betlar

8. Nozilov D.A. O‘rta Osiyo me’morchiligida odatlar , qoydalar va ramziy ifodalar. T.: “San’at” jurnali, nashiryoti. 2011. - 59-bet.

9. Brend B. Iskusstvo Islama. M._ Fair, 2008, 275-276-betlar.

10. Yakovlov Ye.G. Iskusstvo i mirovqe religii. –M.: Vqsshaya shkola, 9 1985, 178-b.

11. Nozilov D.A. O‘rta Osiyo me’morchiligida odatlar , qoydalar va ramziy ifodalar. T.: “San’at” jurnali, nashiryoti. 2011. - 60-61-betlar.

12. Zoxidov P.Sh. Me’mor olami.Qomislar bosh taxririyati. Toshkent. 1996. 39-bet.

13. https://khivamuseum.uz/uz/minoralar-buyuklik-ramzi